O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 11-01-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

228697 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Yangi hayot tumani, “Toshkent” MFY, TXAY ko’chasi 3a-uy hududida “TUKIMACHI ABDULLOH” MChJ ga tegishli yer maydonida “Gazlama matolar to’qish, gazlama matolardan uy tekstil va kiyim kechak mahsulotlari tikish, paxta xom-ashyosidan ip kalava ishlab chiqarish sexi” obyekti hududida qo’shimcha “Tekstil ishlab chiqarish binolarini” loyihalashtirish	
Buyurtmachi:	TUKIMACHI ABDULLOH MCHJ
Bosh loyihachi:	"BLAGO VSEM" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	037831

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o‘z hududida qo‘shimcha bino va inshootlarni qurish uchun 25.07.2024-yildagi 137167830-son ruxsatnoma.

1.2. Toshkent shahar, Yangihayot tumani, Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan 15.08.2024-yilda qayta rasmiylashtirilgan 1726-1726292-195153-sonli Arxitektura - rejalashtirish topshirig'i.

1.3 Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 19.09.2024-yildagi 147016332 -sonli xulosasi.

1.4. O'rnatilgan tartibda mutasaddi tashkilotlar tomonidan kelishilib, buyurtmachi tomonidan 2024-yilda tasdiqlangan ishchi loyihani ishlab chiqish uchun loyihalash topshirig‘i.

1.5. Buyurtmachi va bosh loyihachi o‘rtasida 03.05.2024-yilda tuzilgan loyiha ishlarini amalga oshirish uchun 253/05-sonli shartnoma.

1.6. “BLAGO VSEM” MChJ tomonidan amalga oshirilgan obyekt joylashgan maydonning muhandislik-geologik sharoitlari xulosasi.

1.7. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, “Toshkent shahar elektr tarmoqlari” MChJ elektr tarmoqlariga ulanish uchun 11.06.2024-yildagi 130397994-sonli texnik sharti.

1.8. “Toshkent shahar suv ta'minoti” AJ ning 11.09.2024-yilda taqdim etgan 270/4 - 4117-sonli texnik sharti.

1.9. «Hududgazta’minot» AJ ning 07.07.2023-yildagi № 027665-sonli texnik sharti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra “Toshkent shahar, Yangi hayot tumani, “Toshkent” MFY, TXAY ko’chasi 3a-uy hududida “TUKIMACHI ABDULLOH” MChJ ga tegishli yer maydonida “Gazlama matolar to’qish, gazlama matolardan uy tekstil va kiyim kechak mahsulotlari tikish, paxta xom-ashyosidan ip kalava ishlab chiqarish sexi” obyekti hududida qo’shimcha “Tekstil ishlab chiqarish binolarini” loyihalashtirish” obyekti ishchi loyihasi bo‘yicha taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari:

- loyiha tushuntirish xati;
- bosh reja loyiha chizmalari;
- arxitektura va qurilish loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- temirbeton konstruktsiyasi loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar va hisob-kitoblar;
- elektr ta’minoti va elektr yoritish tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- yong‘in xavfsizligi tizimi loyihasi bo‘yicha chizmalar;
- suv va oqova suv tarmoqlarining loyihaviy yechimlari bo‘yicha chizmalar;
- past kuchlanishli aloqa tizimlari bo‘yicha chizmalar;
- isitish tizimining loyiha yechimlari bo‘yicha chizmalar.

2.2. Obyekt qurilishi hududi holati bo‘yicha "BLAGO VSEM" MChJ tomonidan taqdim etilgan 1:500-masshtabdagi topografik tasviri.

2.3. Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 19.08.2024-yildagi 01-02/14-1637–sonli xulosasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. *Qurilish sharoitlari:*

- Qor qatlamining me’yoriy bosimi: - 50 kg/m^2;
- Me’yoriy shamol bosimi: - 38 kg/m^2;
- Qurilish maydonining seysmikligi: - 8 ball;
- Tuproqning seysmiklik bo’yicha toifasi: - II (ikkinchi);
- loyihaning hisobiy zilzila bardoshligi: - 8 ball;
- Tuproqning muzlash chuqurligi: - 0,48 m;
- Tuproqlarning cho’kuvchanlik bo’yicha toifasi: -I (birinchi);
- Yer osti suvlari, yer sathidan: – 1,50m chuqurlikda;
- Tuproq takibida oson eriydigan tuzlar mavjud, sho‘rlanmagan.

3.2. Bosh reja va Arxitektura rejalashtirish yechimlari.

Toshkent shahar, Yangi hayot tumani, “Toshkent” MFY, TXAY ko‘chasi 3a-uy joylashgan. Obyekt joylashuv o‘rniga qarab:

1) 41°18'35.90" ShK 69°20'50.49" ShU;
2) 41°18'32.44" ShK 69°19'92.11" ShU;
3) 41°18'17.66" ShK 69°20'05.27" ShU;
4) 41°18'19.82" ShK 69°20'50.75" ShU.

Qurilishi rejalashtirilgan obyektning umumiy yer maydoni - 80000 m^2.

- Janubiy-g’arb qismida Toshkent aylanma yo’li (“Tashkent Pharma Park”) va ishlab chiqarish binolari mavjud;

- Shimolda mahalliy yo’l orqali Atlant qurilish mollari savdo majmuoasi va texnopark sanoat zonasi mavjud;

- Janubiy sharqda (Toshkent metal zavodi) va Favhulotda vaziyatlar vazirligi Yangi hayot tumani markazi mavjud.

Eng yaqin aholi yashash punkti janubiy sharqda Aylanma yo’l orqali 518 metr masofada joylashgan.

Bosh reja loyihasi texnik topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan. Binolarni joylashtirish yong'in va sanitariya standartlariga muvofiq ishlab chiqarilgan va loyihaning qurilish va texnologik qismlariga qo'yiladigan talablar asosida. Vertikal tartib drenaj talablari asosida. Hudud bosh rejada qizil chiziq bilan chegaralangan. Bino atrofida yong‘in hafvsizligi qoidalariga binoan o‘t o‘chirish yo‘lagi ko‘zda tutilgan hamda yondosh binolari oraliq masofasi inobatga olingan. Bosh reja tuzishda obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlari, atrofida tungi yoritkichlar o‘rnatilishi aks ettirilgan.

Bosh rejada quyidagi binolar va inshootlar ko'zda tutilgan:

– Loyihalanayotgan 1 qavatli ishlab chiqarish binosi (bosh tarx boyicha №1);

– Loyihalanayotgan 2 qavatli ofis binosi (bosh tarx boyicha №2);

– Loyihalanayotgan 1 qavatli yordamchi bino (bosh tarx boyicha №3);

– Loyihalanayotgan 1 qavatli ishlab chiqarish binosi (bosh tarx boyicha №4);

– Avtoturargoh;

– Chiqindi yig‘ish maydoni;

– Yong‘in o’chirish uchun suv havzalari;

Transformator o‘rni.

Texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlar:

– Umumiy maydoni – 80 000 m2 (100%);

– Qurilish maydoni – 13 673,7 m^2 (17%);

– Qurilish hajmi – 161 020,2 m^3;

– Yashil maydon –54 171,0 m^2, (67%);

– Yo‘l va piyodalar yo‘lagi – 12 155,3 m^2, (16%).

Arxitektura - qurilish qismi:

Ishlab chiqarish binosi – loyihalanayotgan, 1 qavatli (bosh tarx boyicha №1). Bino trapetsiya shaklida bo‘lib, o‘qlar boyicha o’lchamlari (1-58) 222,925 m (A-K) 42,652 m, umumiy balandligi 12,3 m. Binoga oldi va orqa tomondan kirish va chiqish yo’lagi ko’zda tutilgan.

- qurilish maydoni – 8541,7 m^2;

- qurilish xajmi – 94214,95 m^3 tashkil etadi.

Ichki pardozlash:

Devorlar–g‘ovakli g‘isht, gipsli suvoq (shtukaturka), yakunlovchi toza suvoq, yengil tonlarda suv emulsiyasi bo'yoqlar bilan bo'yash. Devor yuqori qismi sovuqqa va namlikka chidamli sendvich panel qoplamasi bilan o’ralishi ko’rsatilgan.

Pol – beton qoplamasi va namlikka qarshi bo‘yoq.

Eshiklar va oynalar–yong’inga qarshi temir darvozalar. (Tashqi oynalar zamonaviy alyuminiy profilli vitrajlar bilan jihozlangan).

Shift –metal fermalarni zanglashga qarshi maxsus bo‘yoqlar bilan bo‘yash;

Tashqi pardozlash:

Devorlari –30 sm bazalt izolyatsiyasi bilan qo‘plangan, tashqi haroratga chidamli mahsus bo'yoqlar bilan bo'yash, yuqori qismi bezakdor sendvich panel qoplamasi loyihalashtirilgan.

Loyihalanayotgan 2 qavatli ofis binosi (bosh tarx bo‘yicha №2). O‘qlar bo‘yicha o‘lchamlari (1-4) 11,6 m, (A-B) 5,6 m. Birinchi qavatda oshxona, xodimlar xonasi, xojatxona va yuvunish xonalari. Ikkinchi qavatda rahbar xonasi, hisobchi xonasi, xojatxona va yuvunish xonalari loihalashtirilgan: Birinchi qavat poldan-shiftgacha balandligi h=3,15m. Ikkinchi qavatning poldan shiftgacha balandligi: h=3,3 m, binoning umumiy balanligi h=7,88 m.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar:

- qurilish maydoni – 72,0 m^2;
- qurilish xajmi – 507,6 m^3 tashkil etadi.

Ichki pardozlash:

Devorlar–g‘ovakli g‘isht, gipsli suvoq (shtukaturka), yakunlovchi toza suvoq, suv emulsiyali bo'yoqlar bilan bo'yash.

Pol – maxsus keramik plitka.

Eshiklar va oynalar –yong’inga qarshi alyumin profilli eshiklar. (Tashqi oynalar zamanoviy profilli 2 qatlamli termo oynalar).

Shift –metal profilli karkasli gip qoplamali shiftlar;

Tashqi pardozlash:

Devorlari –60 sm keramik pilitkalar bilan qo‘plangan, tashqi haroratga chidamli mahsus bo'yoqlar bilan bo'yash, yuqori qismi bezakdor alyumin panel qoplamasi loihalashtirilgan.

<u>*Yordamchi bino*</u> – loyihalanayotgan,1 qavatli (bosh tarx boyicha №3). O‘qlar boyicha o‘lchamlari (1-2) 4,6 m A-B (3,6 m). Binoda xodimlar xonasi va yo‘lak loihalashtirilgan: 1 qavat poldan-shiftgacha h=3,0 m. Bino umumiy balanligi h=4,0 m.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar:

- qurilish maydoni – 20,0 m^2;
- qurilish xajmi – 70,0 m^3 tashkil etadi

Ichki pardozlash:

Devorlar–g‘ovakli g‘isht, gipsli suvoq (shtukaturka), yakunlovchi toza suvoq, yengil tonlarda suv emulsiyasi bo'yoqlar bilan bo'yash.

Pol – maxsus keramik plitka.

Eshiklar va oynalar–yong‘inga qarshi alyumin profilli eshiklar. (Tashqi oynalar zamanoviy profilli 2 qatlamli termo oynalar).

Shift –metal profilli karkasli gip qoplamali shiftlar;

Tashqi pardozlash:

Devorlari –60 sm keramik pilitkalar bilan qo‘plangan, tashqi haroratga chidamli mahsus bo'yoqlar bilan bo'yash, yuqori qismi bezakdor alyumin panel qoplamasi loihalashtirilgan.

Loyihalanayotgan 1 qavatli ishlab chiqarish binosi (bosh tarx boyicha №4). Bino trapetsiya shaklida bo‘lib, O‘qlar bo‘yicha o‘lchamlari 1-23 (119,6 m) A-I (41,6 m) umumiy balandligi 11,0 m. Binoga oldi va orqa taraflama kirish va chiqish yo‘lagi ko‘zda tutilgan.

Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar:

- qurilish maydoni – 5040,0 m^2;
- qurilish xajmi – 56952,0 m^3 tashkil etadi.

Ichki pardozlash:

Devorlar–g‘ovakli g‘isht, gipsli suvoq (shtukaturka), yakunlovchi toza suvoq, yengil tonlarda suv emulsiyasi bo‘yoqlar bilan bo‘yash. Devor yuqori qismi sovuqqa va namlikka chidamli sendvich panel qoplamasi bilan o‘ralgan

Pol – beton qoplamasi va namlikka qarshi bo‘yoq.

Eshiklar va oynalar –yong’inga qarshi temir darvozalar. (Tashqi oynalar zamanoviy alyuminiy profilli vitrajlar bilan jihozlangan).

Shift –metal fermalarni zanglashga qarshi maxsus bo‘yoqlar bilan bo‘yash;

Tashqi pardozlash:

Devorlari –30 sm bazalt izolyatsiyasi bilan qo‘plangan, tashqi haroratga chidamli mahsus bo'yoqlar bilan bo'yash, yuqori qismi bezakdor sendvich panel qoplamasi loihalashtirilgan.

*Avtoturargoh.*Avtoturargohda jami 207 dona avtoturargoh o’rni loihalashtirilgan;

Chiqindi yig‘ish maydoni. Hududda chiqinch maydoni uchun 2x3 metr o’lchamda B15 sinfli betondan diametri 10 mm bo’lgan armaturadan foyidalanib loyihalashtirilgan.

Yong’in o’chirish uchun suv havzalari. Yong’in o’chirish suv havzalari (rezervuar) 10x6 m, chuqurligi h=3metr bo’lib hududa 4 dona loyihalashtirilgan. Yong’in o’chirish suv havzasi jami sigimi V=720 m^3

Transformator o’rni uchun 12,1x5,5 metr o’lchamda B15 sinfli betondan diametri 10 mm bo’lgan armaturadan foyidalanib loyihalashtirilgan.

3.3. Asosiy konstruktiv yechimlari:

Ishlab chiqarish binosi. Loyihaviy, 1 qavatli bino (bosh tarx boyicha №1) konstruktiv tuzilmasi:

O‘qlar boyicha o‘lchamlari (1-58) 222,925 m, (A-K) 42,652 m. Umumiy balandligi 12,3 m.

Nisbiy balandlik ±0,000 (1-qavatning toza pol sathi).

Konstruktiv yechimlar. Binoning konstruktiv yechimi – karkasli, metall konstruksiya, shu bilan birga karkasli, temir-beton konstruksiya seysmik ta'sirlarni qabul qilmaydigan g'isht bilan to'ldirilgan. Poydevorlar –monolit temir-beton lenta va stakan tiplardan iborat.

Metall konstruksiya elementlari: Kislovodskiy modulining metall ustuni diametri 530, devor qalinligi 12 mm lik metall trubadan. Kislovodskiy moduli: 60x3 mm, 76x3,5 mm, 89x4 mm, 102x4 mm, 114x6 mm, 127x7 mm kesimli yig`ma metall konstruksiyadan iborat. Tomyop ma- sovuqqa va namlikka chidamli sendvich panel qoplamasi bilan loyihalangan.

Binoning peremetri bo‘ylab nisbiy balandlik +4,000 dan yuqorisidagi temir-beton konstruksiyadan so`ng metall ustunlar 200x200x6 mm va 160x160x5 mm kesimli metal profildan loyihalangan. Metall balkalar 150x150x5 mm kesimli metall profildan. Devorlari yordamchi (ikkinchi darajali) metal profillarga mahkalamlangan sovuqqa va namlikka chidamli sendvich panel qoplamasi bilan qoplangan.

Temir-beton konstruksiya elementlari: Ustunlar va rigellar monolit temirbeton 400x400 mm o‘lchamli B25 sinfidagi betondan. Devorlari-qalinligi 400 mm bo'lgan M50 qorishmasida, vertikal qadam bilan 675 mm balandlikda gorizontal mustahkamlovchi M75 markali oddiy quyma g'ishtdan yasalgan.

2 qavatli ofis binosi. Loyihalanayotgan, (bosh tarx boyicha №2) konstruktiv tuzilmasi:

O’qlar boyicha o’lchamlari (1-4) 11,6 m, (A-B) 5,6m. 1-qavat poldan-shiftgacha h=3,15m. 2-chi qavatning poldan shiftgacha balandligi: h=3,3 m.

Nisbiy balandlik ±0,000 (1-qavatning toza pol sathi).

Konstruktiv yechimlar. Binoning konstruktiv yechimi –karkasli, temir-beton konstruksiya seysmik ta'sirlarni qabul qilmaydigan g'isht bilan to'ldirilgan. Poydevorlar –monolit temir-beton lenta. Ustunlar va rigellar monolitik temir beton 400x400 mm o‘lchamli B25 sinfidagi betondan. Devorlari-qalinligi 400 mm bo'lgan M50 qorishmasida, vertikal qadam bilan 675 mm balandlikda gorizontal mustahkamlanuvchi, M75 markali oddiy quyma g'ishtdan. Orayopma yig`ma dumaloq bo'shliqli temir beton plitalari 46.1-95, V.7 va zinapoyalari -

monolit temir beton.

1 qavatli yordamchi (NO'P) binosi. Loyihaviy, 1 qavatli (bosh tarx boyicha №3). O'qlar boyicha o'lchamlari (1-2) 4,6 m A-B (3,6 m). Binoda xodim xonasi va yo'lak loyihalashtirilgan: poldan-shiftgacha h=3,0 m. Bino umumiy balanligi h=4,0 m.

Bino loyiha tarhiga ko'ra to'g'ri- to'rtburchak shaklida. Loyihanayotgan bino kompleks strukturaga asoslangan, devorlari temir-beton elementlar bilan mustahkamlanadi. Poydevori-qalinligi 400x1350 mm bo'lgan quyma lentasimon temirbeton, beton sinfi B15, armatura sinfi A400S.

Devorlari - tashqi devorlari g`ishtdan, qalinligi 400mm. Tom tuzilmalari – ikki nishabli, metal profillardan qilinadi.

1 qavatli ishlab chiqarish binosi*. Loyihalanayotgan, bosh tarx boyicha №4, konstruktiv tuzilmasi:*

O'qlar bo'yicha o'lchamlari (1-23) 119,6 m, (A-I) 41,6 m. Umumiy balandligi 11,0 m. Nisbiy balandlik ±0,000 (1-qavatning pol sathi).

Konstruktiv yechimlar. Binoning konstruktiv yechimi – karkasli, metall konstruksiya, shu bilan birga karkasli, temir-beton konstruksiya seysmik ta'sirlarni qabul qilmaydigan g'isht bilan to'ldirilgan. Poydevorlar –monalit temir-beton lenta va stakan tiplardan iborat.

Metall konstruksiya elementlari: Kislovodskiy modulli metall ustuni diametri 530, devor qalinligi 12 mm lik metall trubadan. Kislovodskiy moduli: 60x3 mm, 76x3,5 mm, 89x4 mm, 102x4 mm, 114x6 mm, 127x7 mm kesimli yig'ma metall konstruksiyadan iborat. Tomyopma-sovuqqa va namlikka chidamli sendvich panel qoplamasi bilan loyihalangan.

Binoning peremetri bo'ylab nisbiy balandlik +4,800 dan yuqorisidagi temir-beton konstruksiyadan so`ng metall ustunlar 200x200x6 mm va 160x160x5 mm kesimli metal profildan loyihalangan. Metall balkalar 150x150x5 mm kesimli metall profildan. Devorlari yordamchi ikkinchi darajalik metal profillarga mahkalamlangan sovuqqa va namlikka chidamli sendvich panel qoplamasi bilan qoplangan.

Temir-beton konstruksiya elementlari: Ustunlar va rigellar monolitik temir beton 400x400 mm o'lchamli B25 sinfidagi betondan. Devorlari-qalinligi 400 mm bo'lgan M50 qorishmasida, vertikal qadam bilan 675 mm balandlikda gorizontal mustahkamlovchi M75 markali oddiy quyma g'ishtdan yasalgan.

Qurilish muddati loyiha bo'yicha hisoblangan – 3 yil.

Loyiha O'zbekiston Respublikasida amaldagi loyiha me'yorlariga muvofiq amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

3.4 Energiya tejamkorlik.

Loyihada binolarni energiya samaradorligini oshirish maqsadida devorlar va tomlarning issiqlik izolyatsiyasidan (bazalt tolali plitalar) foydalanilgan.

Binolar ichki yo'laklarda yorug'lik tizimi harakat datchigiga ega chiroqlardan foydalanilgan.

Issiq suv tizimini qo'llab quvvatlash uchun binolarning tom qismiga quyosh kollektorlari o'rnatilgan.

Obyektning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan.

Loyihada binolarning tom qismiga quvvati 550 Vt bo'lgan jami 80 dona quyosh fotoelektr panellari o'rnatilishi va bu quyosh panellari jami 45 kVt quvvatga ega invertorlardan tashkil topganligi ko'rsatilgan.

3.5.Yong'in xavfsizligi.

Binoning yong’inga bardoshliligi darajasi II. Konstruktiv yong’in xavfi sinfi-C0. Funktsional yong‘in xavfi sinfi- F5.1.

Loyiha obyektni yong'in signalizatsiyasi va ovozli yong'indan xabar berish bilan jihozlashni nazarda tutadi.

Loyihada bino va inshootlarda yong'in xavfsizligi choralari ko‘rilgan va yong‘inga qarshi boshqarish tizimlari o’rnatiladi. Sexlarda avtomatik (splenkler suv to‘ldirish tizimi boshqaruvi) yong'inni o'chirish (APT) inobatga olingan va yong'inga qarshi nasos stansiya tizimi loyihalashtirilgan. Yong‘inga qarshi suv zaxirasi to‘rtta 720 m^3 lik sig‘imlarda saqlanadi.

Yong'in sodir bo'lganda, majmuaning yer ostiga o'rnatilgan nasoslari avtomatik ravishda ishga tushiriladi. Agar ishlaydigan nasoslar ishlamay qolsa, zaxira nasoslar avtomatik ravishda yoqiladi. Loyihada bino va inshootlarga o't o'chirish mashinalari kirish joylari taqdim etilgan.

Barcha yog’och konstruksiyalarga yong’inga qarshi vositalar bilan ishlov berilgan bo’lishi talabi qo’yilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Tashqi suv ta’minoti va oqava suvlarni oqizish tizimlari.

Xo’jalik iste’mol suvi tarmog’i-B1 va yong'inga qarshi suv ta'minoti suv-B2 quvuridan bo’lib, yer sathidan 1,0-1,2 m chuqurlikda yotqiziladi va quduqlarda o'chirish armaturalari ko’zda tutilgan. Suv ta'minoti tarmoqlari po’lat quvurlar va PE100 SDR-9,0 (yoki analog) polietilen bosimli quvurlaridan GOST bo'yicha olinadi.

Oqova suv ta’minoti ikki qavatli gofrali quvurlaridan foydalanilgan (SN8) bo’lib, yer sathidan 0,8-2,3 m chuqurlikda yotqizilishi ko’rsatilgan.

4.2. Isitish, sovutish va shamollatish tizimlari.

Tashqi havoning loyihaviy parametrlari: sovuq mavsum Tn= –14°C (B parametr); yilning issiq davri Tn = 37,5°C (A parametr);.

Isitish tizimi ko‘zda tutilgan. Ishlab chiqarish va ofis binosi xonalarida qulay sharoitlarni ta’minlash uchun radiatorli va havo orqali isitish qurilmasi qo’llangan. Ofis xonalari uchun split devor tipidagi konditsionerlarni o'rnatish ko’zda tutiladi. Tashqi bloklar tashqi devorga o'rnatiladi. Shuningdek, ishlab chiqarish binosida va ofis xonalarida ventilyatorlar o'rnatilgan bo‘lib, havoni so‘ruvchi shamollatish amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Sanitariya xonalarida kanal ventilyatorlari bo'lgan tizimlar o'rnatiladi.

4.3. Elektr ta‘minoti. Obyektning elektr ta'minoti loyihasi me'moriy-qurilish bo'limi va nuqson dalolatnomasi asosida amaldagi me'yor va qoidalarga muvofiq bajarilgan. Obyektning elektr yoritish va jihozlash ishchi loyihalari sanitar-texnologik va issiqlik tehnikasi bo'limlari ma'lumotlari asosida, joriy QMQ-2.01.05-19 va ShNQ-2.04.17-19, EUTQ (PUE)-2011 ga muvofiq ishlab chiqilgani ko’rsatilgan.

Tarmoq kuchlanishi 380/220 V.

Hisoblangan quvvat: Rr=609,3 kVt.

Hisoblangan tok: Ip=1173,04 A.

Elektr ta'minoti ishonchliligi bo'yicha 2-toifali iste'molchi hisoblanadi.

Loyihada ishchi va favqulodda yoritish tizimi. Shuningdek elektr jihozlari o'rnatilishi ko'rsatilgan.

Favqulodda yoritish yoritgichlari ishchi yoritgichlar orasidan ajralib turadi, "A" harfi bilan belgilanadi va ShAO favqulodda yoritish shiti orqali quvvatlanadi.

Yoritish chiroqlari binoni konstruktiv hususiyatlari, xona maqsadi va tashqi muhit hususiyatlariga ko'ra tanlab olingan. Elektr yoritish tizimi uchun svetodiod yoritgichlar qabul qilingan.

Barcha xonalarda umumiy bo'lgan bo'lgan yoritish tizimii uchun kalit (vыklyuchatel) poldan 0,9 m balandlikda va rozetkalar poldan 0,4m balandlikda o'rnatiladi.

Loyihada yoritish shiti UOShV-6UXL4 va UOShV-12UXL4 tipidagi va quvvat taqsimlash shiti PR-8501 tipidagi shitlarni o'rnatish nazarda tutilgan.

Yoritish tizimini tarqatish tarmoqlari VVGng rusumli kesim yuzasi 2*2.5mm² va 3*2.5mm² kabellar bilan, plita bo'shliqlarida, devordagi suvoq qatlami ostida amalga oshiriladi.

Elektr jihozlarini tarqatish tarmoqlari VVGng rusumli kesim yuzasi 3*2,5mm², 3*4mm², 5x2,5mm², 5*4mm², 5*6mm², 5*10mm², 5*16mm², 5*25mm², 4*35+1*16mm², 4*95*1*50mm² kabellar bilan uvoq qatlami ostida va plastmassa quvurlar orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi PF-220-sonli farmoniga asosan elektr enegiyasini tejash maqsadida va loyiha topshirig'iga asosan loyihada binoga 40 kVt quvvatdagi muqobil energiyaga bilan ta'minlash loyihada nazarda tutilgan.

Loyihada avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining ishlashiga (ASKUE) mos keluvchi elektron o'lchagich bilan elektr o'lchash imkonini beruvchi (ShVU) kirish tarqatish qurilmasini o'rnatish ko'zda tutilgan.

Elektr qurilmalarining barcha metal tok o'tkazmaydigan qismlari yerlatiladi. Buning uchun tashqi va ichki yerlatish konturi inobatga olingan. Tarmoqlarning neytral simlari va qo'shimcha neytral simlar yerlatish o'tkazgichlari sifatida ishlatiladi.

Elkektr toki urishining oldini olish uchun asosiy chorasi sifatida, loyihada barcha elektr jihozlarini nolga tushirilishi ta'minlanadi.

Barcha o'rnatish ishlarini EUTQ (PUE) ga muvofiq bajariladi.Binoning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy LED chiroqlari o‘rnatilishi nazarda tutilgan.

Loyihadagi asosiy elektr taqsimlovchi shitlarning quvvatlari.

GRSh-1 zazemleniyasi 50x50x5mm po‘lat burchak va 40x4mm po‘lat belbog‘or orqali amalga oshirilgan.

Elektr energiyasini taqsimlash uchun VVG va VVGng turidagi turli kesimdagi kabellardan foydalanilgan.

Loyihada binoning tom qismiga 80 dona 550 Vt quvvatli quyosh paneli 45 kVt quvvatli invertor orqali ulanishi ko‘rsatilgan.

4.4. Yongin xavfsizligi signalizatsiyasi.

Loyihada yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun yong'indan ogohlantirish- boshqarish paneli «Grand magist » (yoki analog) ni nazoratchi xonasiga o'rnatilishi rejalashtirilgan.

Loyihani ishlab chiqishda qabul qilingan texnik yechimlar Respublika hududida amalda bo'lgan sanitariya, ekologik, yong'in va boshqa nizom talablariga mos keladi hamda inson hayoti va sog'lig'ini, havfsizligini ta'minlaydi.

Loyihada qabul qilingan texnik yechimlar avtomatik yong'indan ogohlantirish, yong'in rivojlanishining dastlabki bosqichida aniqlash, yong'in haqida ishonchli ma'lumot berish va yong'in qurilmasida yong'in ma'lumotini qayd etish uchun mo'ljallangan.

Elektr ta'minoti tizimida- kislotali akkumulyatorlar mavjudligi sababli muqobil energiya mavjud. Yong'indan ogohlantiruvchi barcha uskunalari 12V zahira kuchlanish manbai bilan ishlashga mo'ljallangan. Yong'indan ogohlantirish qurilmalari sifatida quyidagi habarchilar taqdim etiladi; Tutun habarchilari (IP-212-141) va qo'l yordamidagi yong'in habarchilari (IPR-513-10) ni poldan 1.5m balandlikka o'rnatiladi. Loyihada har bir himoyalangan xonada kamida 2 tadan tutun xabarlagichlari o'rnatilishi ko'zda tutilgan.

Yong'indan ogohlantirish tarmoqlari TRP simidan qilingan, har bir xonadagi yongin xabarchilari, bog'lovchi (KC-4) qutilarini o'rnatish lozim. Yong'in ogohlantiruvchisi sensori shiftga o'rnatiladi. 1 ta tutun xabarchilari tomonidan nazorat qiliadigan maydon 50m^2. Loyihada ovozli yong'indan xabar beruvchi uskunalar yong'indan ogohlantirishni ta'minlaydi. Kabel va simlarni yotqizishdan oldin ularning holati tashqi tekshirish orqali va bundan tashqari o'tkazgichlarning izolyatsiyasining yaxlitligini tekshirish kerak.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 19.08.2024-yildagi 01-02/14-1637–sonli xulosasi.

5.2. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasining loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 19.09.2024-yildagi 147016332 -sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **20 777 493 509** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati
0 so'mga kamaytirilib, **20 777 493 509** so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **18 279 055 081** so'm
Asbob-uskunalar: **272 278 409** so'm
QQS: **2 226 160 019** so'm

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish energotejamkorlik va boshqa yechimlari bo‘yicha e‘tirozlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Buyurtmachining 08.01.2025-yildagi 05/25-sonli xatiga asosan obyekt qurilishini moliyalashtirish buyurtmachining o’z mablag’lari hisobidan moliyalashtirilayotganligi sababli smeta hujjatlari ekspertizada ko’rib chiqilmadi.

6.3. Ekspertiza jarayonida sohalar ekspertlari xulosalarining izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan to‘liq qabul qilinib, ishchi loyihaga tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritilgan.Shuningdek loyihada quyidagilarni e’tiborga olish belgilangan:

– uskunalar, buyumlar va materiallar spetsifikatsiyasini rasmiylashtirish va tegishli ko‘rinishga keltirish (GOST 21.110-2013 bo‘yicha);

– Broshyuralangan hujjatlarni belgidangan tartibda rasmiylashtirish: muqova, titul varag‘i, mundarija, loyiha tarkibi (GOST 21.101-97, 4- va 9-bo‘limlar bo’yicha);

–energiya tejovchi turdagi qurilish konstruksiyalari va izolyatsion materiallardan foydalanish, sertifikatlangan energiya tejovchi istemolchilarni o‘rnatishni ta‘minlash;

–loyihachi tashkiloti qurilish elementlarining mustahkamligini amaldagi meyorlarga muvofiq qo'shimcha ravishda tekshirish va zarurat tug'ilganda ularni mustahkamlash to'g'risida qarorlar qabul qilish va boshqalar.

6.4. Buyurtmachiga tavsiya etiladi:

– Qurilish materiallari (mahsulotlar, tuzilmalar) va jihozlarning narhi mintaqaviy bozorda, shuningdek to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqaruvchilar (yetkazib beruvchilar) tomonidan, hamda, birja byulletenlari va boshqa manbalardan aniqlash;

– katlovan va transheya qazish ishlarini meyoriy hujjatlarda belgilangan tartibda qabul qilish;

– Yer ishlarini bajarishdan oldin, kutilmagan holatlarning oldini olish uchun, mavjud bo'lgan yer osti muhandislik tarmoqlari va kommunikatsiyalarining haqiqiy joylashuvini, mahalliy ekspluatatsiya xizmatlari vakillari bilan aniqlash zarurligi ta'kidlanadi.

6.5. Yakuniy qurilish qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so‘ng, haqqoniy bajarilgan ish hajmlarining nazorat o‘lchovi natijalari asosida belgilanadi.

6.6. Buyurtchi import qilinadigan asbob-uskunalarni sotib olayotganda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida" gi qonuniga amal qilishi zarur.

6.7. Loyihachi loyiha-smeta hujjatlarini buyurtmachiga mazkur xulosaning 6.2-bandidagi va lokal ekspert xulosalarida ko‘rsatilgan sharxlar bo‘yicha to‘g‘irlab tasdiqlangan holda taqdim etishi lozimligi qayd etiladi.

6.8. Buyurtmachi va loyihalash tashkiloti ishchi hujjatlar tasdiqlanishidan oldin mahalliy arxitektura va qurilish organi, hududiy sanitariya-epidemiologiya xizmati, yong‘inga qarshi nazorat xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O‘zenergoinspeksiya va boshqa barcha manfaatdor tashkilotlar bilan belgilangan tartibda kelishishi zarur.

6.9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021-yildagi 579-sonli qarorining III-bob 29-bandiga, ShNQ 1.03.06-13, II bob, 8-bandiga muvofiq Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining to‘liqligi, ma‘lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiqaruvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **“***Toshkent shahar, Yangi hayot tumani, “Toshkent” MFY, TXAY ko’chasi 3a-uy hududida “TUKIMACHI ABDULLOH” MChJ ga tegishli yer maydonida “Gazlama matolar to’qish, gazlama matolardan uy tekstil va kiyim kechak mahsulotlari tikish, paxta xom-ashyosidan ip kalava ishlab chiqarish sexi” obyekti hududida qo’shimcha “Tekstil ishlab chiqarish binolarini” loyihalashtirish***”* obyekti ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Murotov Behzod Jo‘raqulovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Murodillayev Yashnarbek Otamurod O‘g‘li, Ikromov Muxiddin Sodiqovich, Tursunov Rovshan Xasildjanovich, Usmanov Kayrat Sharipbayevich, Yuldashev Maxmudjon Baxodirovich, Yermakova Olga Yevgenevna, Musayev Rustam Talatovich, Zairov Nig‘matjon Qobilovich, Tursunov Vohidjon Zoirovich